

Kushieva Saule Namazbaevna

Guliston shahar 9-son umumiy

o'rtta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi

tel: +998994712971

Jaxon t'alimi taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti ta'limning takomillashishi va taraqqiyot etishi bilan chambarchas bog'liq.

Intefaol metod bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmuning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikga mustaqil fikrlash ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;-o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

-o'qituvchi va o'quvchining xamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Quyida biz ularga alohida to'xtalib o'tamiz.

“TARMOQLAR” metodi – o'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda o'qib o'rgatishga qaratilgan.

“3x4” metodi o'quvchilarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olish, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

“BLITs-O'YIN” metodi harakatlar ketma-ketligi to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan pridmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan keraklisini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

“MULOQOT” texnikasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga qaratilgan.

“FSMU” texnologiyasi-munozarali masalalarni xal etishda, baxs- munozaralar o'tkazishda o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda bahslashishga, shu bilan birga o'quvchilarni egallagan bilimlarini baholashga, tahlil etishga hamda baxslashish madaniyatini o'rgatadi.

F- kringizni bayon eting	S- fikringizni ayoniga sabab ko'rsating	M- ko'rsatgan sababingizni misol keltiring	U- fikringizni umumlashtiring
--------------------------	---	--	-------------------------------

4 sinf “Odobnoma” darsligidagi “Ezgu fazilatlar - komillik mezoni” mavzusidagi mashg’ulotda “Klaster” metodidan foydalanish jarayonida ezgulikka etaklovchi sifat va xususiyatlarni tarmoqlab chiqish orqali o’quvchilarda egulikka haqida ma’lum tushunchalar tizimi shakllanadi.



“Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash mantiqni shakllantirish imkonini yaratadi, xotirani, g’oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og’zaki bayon qilish ko’nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birgalikda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: -jamoa bilan ishlash mahorati; -muomalalalik; -xushfellik; -ko’nikuvchanlik; -o’zgalar fikriga xurmat; -faollik; -rahbarlik sifatlarini shakllantirish; -ishga ijodiy yondashish; -o’z faoliyatini samarali bo’lishga qiziqish; -o’zini xolis baholashga o’rgatadi.

Ochiq savollar - bu savollar muomala, so’zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Unga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar: - bu savollar oldindan “xa” va “yo’q” tipidagi to’g’ri, ochiq javoblarni berishni ko’zda tutadi.

Ko’ndalang so’roq - bir biriga guruhlab beruvchi qisqa savollar qatori bo’lib bu o’ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni apanentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

“SKARABEY” texnologiyasi o’quvchilarda fikriy bog’liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o’z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o’quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini holis baholash, o’rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni, aniqlash imkonini beradi.

Ta’limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: - o’zgalar fikriga xurmat; - jamoa bilan ishlash mahorati; - faollik; - hushmuomalalalik; - ishga ijodiy yondoshish; - imkoniyatlarini ko’rsatish ehtiyoji; - o’z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi; - “men” ligini ifodalashga imkon beradi.

“Elpig’ich” texnologiyasi murakkab ko’p tarmoqli mumkin qadar, muammo harakteridagi mavzularni o’rganishga qaratilgan. Buning o’ziga xos xususiyati shundaki mavzuni turli tarmoqlari bo’yicha bir yo’la axborot beriladi. Ayni paytda ularning xar biri alohida nuqtalarda muhokama etiladi. Bu texnologiya turli bosqichlarda qo’llanilishi mumkin. Ta’limdan tashqari “Elpig’ich” texnologiyasi tarbiya xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi; jamoa guruhlarda ishlash mahorati; muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati; murosali qarorlarni topa olish mahorati; o’zgarlar fikriga hurmat; xushmuomalalaik; ishga ijodiy yondashish; faollik; muammoga diqqatni jamlash mahorati tarkib topadi.

Boshlang’ich sinflarda darslarni mavzularining mazmuniga mos holda yuqoridagi metodlar o’qituvchi tomonidan tanlanadi. Metodning amalga oshishida o’quvchilar faol ishtirok etadilar. Birinchi va ikkinchi sinflarda kam vaqt oldadigan, o’yin shaklidagi metodlar samarali bo’ladi. Keyingi sinflarda murakkabroq metodlardan o’quvchilarga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.